



Xoshimova Moxigul Axmatovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr Xiva adabiy muhitida salmoqli ijod qilgan ijodkor Ahmad Tabibiyning ko'plab janrlar qatorida doston janrining yetuk namunalarini yaratganligi va uning ijodini yangicha tamoyillar asosida tadqiq qilish lozimligi aks ettirilgan. Qolaversa, uning bir qator dostonlari Sharq mumtoz dostonchiligining barcha qonunlariga javob tariqasida mukammal yaratilganligi dalillar asosida isbotlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *janr, poetika, ijodkor shaxsi, an'anaviylik.*

ЗНАЧЕНИЕ ЖАНРА ДОСТАН В ТВОРЧЕСТВЕ АХМАДА ТАБИБИЯ

Аннотация: *В данной статье отражен тот факт, что творец Ахмад Табиби, значительно проявивший себя в литературной среде Хивы в XIX веке, создал зрелые образцы эпического жанра среди множества других жанров, и что его творчество следует изучать на основе новых принципов. Кроме того, на основе имеющихся данных доказано, что ряд его эпосов был создан в полном соответствии со всеми законами классического восточного эпоса.*


Ключевые слова: *жанр, поэтика, творческая личность, традиционализм.*

THE SIGNIFICANCE OF THE DOSTAN GENRE IN THE WORK OF AHMAD TABIBIY

Annotation: *This article reflects the fact that the creator Ahmad Tabibiy, who worked extensively in the literary environment of Khiva in the 19th century, created mature examples of the dostan genre among many genres and that his work should be studied on the basis of new principles. In addition, it is proven on the basis of evidence that a number of his dostans were perfectly created in response to all the laws of classical Eastern dostan.*

Keywords: *genre, poetics, creative personality, traditionalism.*

Sharq xalqlari islomdan keyingi davrda milliy adabiyot tizimlarini hukmron g'oya, hukmron adabiy ta'sir doirasida o'zlashtirib, o'z adabiy jarayonlarini yangilashga muvaffaq bo'ldilar. Uning yadrosini aruz bilan almashtirdilar. Ona





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tillari qonuniyatlari – soʻz boyligi, fonetik jihatlari, semantik xususiyatlari talablaridan kelib chiqib aruzning koʻplab bahrlaridan eng moslarini tanlab oldilar va uni avvalgi badiiy tizimning mukammallik kasb etgan fazilatlari bilan rivojlantirishga erishdilar.

Doston janrining taraqqiyotiga oid ilmiy va badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida ushbu janr dastlab masnaviy shaklida boʻlgan va uning keng imkoniyatlari haqida davrining yetuk dostonnavislari eʼtirof etgan. Misol tariqasida:

Hazrati Navoiy nazm haqida soʻz yuritarkan, masnaviyni sheʼriyatning eng afzali sifatida baholaydi va uning tasvirdagi imkoniyatlarini boshqa hech bir janr amalga oshira olmasligini taʼkidlab quyidagi misralarni yozadi:

Masnaviykim burun dedim oni,
Soʻzda keldi vasiʼ maydoni¹⁶.

Har bir janrning tarixiy taraqqiyoti, shu asosda takomillashgan qatʼiy qonuniyatlari va tizimi mavjud. Har bir janrning hajm, mazmun va sifat chegarasi bor. Masnaviy ruboiydan nafaqat shakli, balki belgilangan chegaralari bilan farqlanganidek, barcha janrlar bir-biridan keskin ajralib turadi. Davrlar oʻtishi bilan masnaviy asarlar badiiy toʻqima va qoliplar asosida poema janri bugungi koʻrinishga kelgan.

Ahmad Tabibiyning ijodi mumtoz adabiyotimizning ushbu qonuniyatlari, badiiy tizim anʼanalarini qamrab olgan, oʻz qarashlari va isteʼdodi darajasida uni qayta jonlantirgan ijoddir. U oʻz devoniga bir necha janrga oid asarlarni kiritgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu devonlarda aks etgan asarlar ijodkorning arab, fors va turkiy sheʼriyat tajribalaridan shunchaki foydalanib yozilgan emas. Bu asarlarda keskin oʻzgarayotgan ijtimoiy makonning yangi talablari: sheʼriy obrazlar hissiy-emotsional yukining orttirish, mavzuning tezkor talqini va yengil qabul qilinishi uchun ohangdor illyustratsiyalar kiritilgan va boshqa zamonaviy poetik tasvir vositalari mahorat bilan qoʻllanilgan. Garchand shoir dostonchiligida gʻoya baʼzi oʻrinlarda tasvir pardalari orasiga yashirinib qolsa-da, uning sirliligi va koʻp maʼnoda tovlanib turishi kishini hayratlantiradi. Ahmad Tabibiy poetik maqsadini janrlar qonuniyati asosida ifoda etish uchun juda koʻp badiiy usullarga murojaat qiladi. Uning “Voqmiq va Azro”, “Yetti ravza” nomli dostonlarida ham tasvirning poetik chizgilari buyuk dostonnavislardan qolishmaydigan darajada tasvirlab berilgan.

Dostonning kirish qismi bilan tanishishning oʻziyoq asarning badiiy qiymatini belgilashga yetarlidir. Muqaddimada salaflarini eʼtirof etib shunday yozadi:

¹⁶ Navoiy Sabʼai sayyor -Toshkent; Gʻafur Gʻulom nomidagi matbaa-birlashmasi 1991 35-bet.





Yana Nazmin qilurda bayon,
Onga bo'lding atrok ila tarjimon.
Yana ayladim nazm tartibini,
Ko'r avval Fuzuliyni tarkibini¹⁷.

Ushbu baytdan ma'lum bo'ladiki ijodkor yaratgan asarning taqdirida, uning yashovchanligida, umrboqiyligida ustozlarning oq fotihasi katta ahamiyat kasb etishini, shogirdlar ijodining gullab, yashnashida salaflarining izidan ergashishi haqida so'z yuritiladi.

Bundan tashqari adib "Yetti ravza" dostonining sujeti va kompozitsiyasida bir qator yangiliklarni ham yaratganki, bu yangiliklar asarning yozuvchi o'ylaganidan-da yuksak o'rinlarga ko'tarib bergan. Tabibiy ijodining yana bir jihati shundaki, ularda tasvir obyekti faqatgina asarning nomigagina bog'lanib qolmasdan mumtoz adabiyotning boshqa janrlarida uchrovchi unsurlarning mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Tabibiy dostonlari matni bilan tanishish va ularning badiiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ijodkor ularda g'oyaviy yaxlitlikka intiladi, doston boshlanishidagi fikrni doston so'ngiga qadar izchil davom ettirishga, g'oyani baytma-bayt ochib, dalillab borishga intiladi. Mazkur janrning keying avlodga bus-butun holicha yetkazilishida Tabibiyning dostonlari alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Valixo'jayev B. XIX-XX asrning 2-yarmidagi o'zbek poemachiligida Alisher Navoiyning traditsiyalari. Adabiyot va hayot.-Samarqand, 1969. 13-20-b.
2. Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарк, 1999. – 240 б.
3. A.Jalolov. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi O'zbek adabiyoti.-Toshkent: Fan, 1991. 151 b
4. A.Navoiy "Xamsa" -Toshkent:2018
5. G'anixo'jayev F. Ahmad Tabibiy. -Toshkent:"Fan"1978.80-b
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. -Toshkent: O'zbekiston, 2008.
7. Tabibiy. Tanlangan asarlar. Vomiq va Azro. -Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968.-218 b.

¹⁷ Tabibiy. Tanlangan asarlar. Vomiq va Azro. -Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. 48-bet.

